


SHE'RIY SAN'ASLAR



TASHXISGA MISOLLAR

*Ko'rganda qomatingiz bo'lgay xijil sanolar
Tovus jilvasidin raftoringiz chiroyli.*

*Agar kelsa ketar holim ko'ribon,
Ajal jonimni olmasdan uyolib.*

INTOQQA MISOLLAR

*Men qushemen qasr-u gulshan ziynati
Naqsh-u rangim ahli olam hayrati.*

*Arusiy barmoqni tupori deydi,
Sen pastsan men sendan yuqori deydi.*

TAZOD

*Tazod –
narsa-
hodisalarni
zidlash orqali
hosil qilinadi*

Tazodga misollar

Rahm qilg'il bandaga, ey shoh, ul Tengri uchun
Kim etar bizni gado ul sizni sulton aylagan.

Menga sensiz tirilgandan o'lim yuz qatla ortiqdur,
Bu so'zda, haq bilur ko'nglim tilim birla munofiqdur.

TANOSUB

*Shoirning bir-biriga
mantiqan bo'g'liq
bo'lgan va bir-birini
taqozo etadigan
so'zlardan
foydalanish tanosub
teyiladi*

Tanosubga misollar

Olma yanog'ing ko'rgach, men bandi nechun o'lmay


Bodom ko'zi fitna, pista dahani nozik.

Soz bazmidin navo ushshoqqa maxsus o'lub,


Changdek faryodlar mahzun-u dilozorimga os.



Talmeh



Talmeh (arabcha soʻz boʻlik, maʼnosi «chaqmoq chaqilishi», «bir nazar tashlash» demakdir) Badiiy sanʼat sifatida u tarixiy va afsonaviy voqea, masal, shaxs, mashhur asar va qahramonlar nomiga ishora qilish vositasida fikrni qisqa, ixcham tasvirlashdir.



Shoir sheʼridagi taxallusi va asar ichidagi qahramonlar talmeh boʻla olmaydi.

TALMEHGA MISOLLAR

*Zohido, ishq-u muhabbat ahlini ma'zur tut,
Yor ko'yida na bo'ldi Shayx San'on oqibat?*

*Senga besun ilohim Nuh umrin
Menga ham furqatingda sabri Ayyub.*

Mubolag'a (bo'rttirish)

*Teskari
mubolag'a, ya'ni
shaxs, narsa va
voqea hodisalarni
juda kichraytirish
Litota deyiladi*

1. **T**ablig'-
tasavvur
qilish
mumkin,
amalga
oshirish
qiyin

2. **I**g'roq-
tasavvur
qilish
qiyinrog'-
u, ammo
amalga
oshirib
bo'lmaydi

3. **G**'uluv-
tasavvur
qilish ham
qiyin, amal
ga ham
oshirib
bo'lmaydi

Mubolag'aga misollar

*Ey sabo, holim borib sarwi xiromonimg'a ayt,
Yig'larimning shiddatin gulbargi xandonimg'a ayt.*

(Tablig')

*Orazingni bog'aro chun ko'rdi, hayron bo'ldi gul,
Bargsiz qoldi nedinkim, bas parishon bo'ldi gul.*

(Ig'roq)

*Tikilsam quriydi daryoning qumi,
Na'ra tortsam qo'rg'onning timi.*


(G'uluv)

*Ul sanamkim, suv yaqosida paridek o'ltirur,
G'oyati nozukligidin suv bilan yutsa bo'lur*


(litota)



Kitobat (harf)



*Kitobat san'ati arab
alifbosi harflari
shakllaridan lirik va epik
timsollar chizishda
foydalaniladi.*



Alif,dol,lo,lom-
alif,jim,nun,mim,
nas,yo, sod,
nuqta-asosan
kitobat bo'lib
keladi.

Kitobat san'atiga misollar

*Mushkin qoshining hayati ul chashmi jallod ustina,
Qatlim uchun “nas” keltirur “nun” eltibon “sod” ustina.*

*Jonimdagi “jim” ikki “dol”ingga fido,
Andin so'ng “alif” toza niholingga fido.*

Tashbih

Ikki narsa yoki tushunchani ular o'rtasidagi haqiqiy (real) yoki majoziy munosabatlarga ko'ra o'xshatish san'atidir.

YUZING GO'ZALLIKDA GUL KABIDIR

O'xshamish
{yuz}

O'xshatilmish
{gul}

Asos
{go'zallik}

Vosita
{kabi}

Vositalar: -dek, simon, -day, -ona, -noma, -omuz, kabi, o'xshab, singari, yanglig', xuddi, go'yo, bamisoli, andoqki.

TASHBIHGA MISOLLAR

Sen gulsen-u, men haqir bulbuldurmen,
Sen shu'lasen, ul shu'laga kuldurmen.

Bu kun boshqachadir paxtazor, dala,
Oynaday buloqlar, kumush soch tog'lar.

Tarsi'
(muvozana)





*Baytda birinchi
misra soʻzlari bilan
ikkinchi misra
soʻzlarining bir-biriga
ohangdosh, vazndosh,
qofiyadosh boʻlishi.*

Tarsi' (muvozana) misollar

*Layli ishqin tanimda jon qil,
Layli shauqin rangimda qon qil.*

*Ko'rib dardim tarakhum qilmading hech,
To'kib ashkim tabassum qilmading hech.*



TAJNISGA MISOLLAR

*Keldi sanga yuz umid bila,ey moh,
Lekin yozdim yuzingni ko'rmay yuz oh.*

*Tajnisi
tom*

*Bodasiz betobman bu kecha man.
La'ling istab emdi jondin kechaman.*

*Tajnisi
murakkab*

*Tajohuli
orif*

*Bilib turib
bilmaslikka olish.
Ritorik so'roq
gaplardan
foydalanish*



Tajohuli orifga misollar

*Ollah-ollah, ne so'z durur bu so'z,
Mundin ortiq yana bo'lurmu so'z,*

*Soching rangi anbar mudur, mushki chinmu?!
Labing ta'mi shakar mudur, angabinmu?!*



*Irsoli
masal*

The diagram features a yellow starburst on the left containing the text 'Irsoli masal'. A thick green curved arrow originates from the top of the starburst and points towards a large yellow arrow on the right. The large yellow arrow contains the text 'She'rdā fikrni dalillash uchun xalq maqollaridan keltirish'. The background is white with green geometric shapes on the right side.

*She'rdā fikrni dalillash
uchun xalq maqollaridan
keltirish*

Irsoli masalga misollar



*Sabr qilsang g'uradin halvo bitar,
Besabrlar o'z oyog'idan yitar.*

*Umrini oshiq hamisha
O'tkazur orzu bilan;
O'ying o'n beshi qorong'u,
O'n beshi yog'du bilan*




*Shoir tasvir
jarayonida o'zining
oldingi fikridan voz
kechib, uning o'riga
yangi fikr keltiradi.*

RUJU'GA MISOLLAR

Azm ayla,sabo,ul guli handonimg'a,
Ne gulki,quyoshdek mohi tobonimg'a.

Yug'lab turdim,yig'lab turdim emas,unda tirik o'ldim.

Meni ishqdin ma'n etar sodda shayx,
Dema sodda shayx,aytkim loda shayx.



*Rang-barang qilmoq degan
ma'noni bildiradi. She'rdā turli
tildagi so'zlardan foydalanish.*

TALMIGA
MISOLLAR

Ba xudoki,xastalarg'a yuzungiz g'amidin o'lmak,
Du hazor bora xushtar zi hayoti jovidoni .

Beruniy bobomiz shu,ismi ham Abu Rayhon,
Ba forsi guftaam gar az zamoni pur Sino.

IYHOM

*Shubhaga
solish,
chalkasht
irish. Bir
soʻzda
turli
maʼnolar
ni berish.*

IYHOMGA MISOLLAR

*Ne shirin o'g'ridur og'zing olib ko'nnglungni to'yg'uncha,
Yoshundi har necha so'rsam, topilmas infi olindin.*

*So'z labidin ul ado birla chiqorkim, rashkidin,
Tushgusidir la'li serob-u dur-u maknunga o't*

*Soʻzdan
soʻzni
ajratmoq.
Baytda
asosdosh
soʻzlarni
ishlatish.*



ISHTIQOQQA MISOLLAR

Qilsa zulm ul zolim elni qilmag'il, yo Rab, zabun
Chun tazallumdur ishim, doim meni mazlum qil.

Men bo'lg'ay **jondin** fido
Bo'lguncha **jonondin** judo,
Ne kerak **jon**, ezsa jonim
Bir umr armon yuki.


*Husni
ta'rif*

*Fikrni asoslash
san'atidir. Shoir o'z
fikriga hayotiy
bo'lmagan dalil
keltiradi
(q'irt yolg'on desa ham
bo'ladi).*

Husni ta'filga misollar

Chu gul ko'rdiki suv har kun tegar qutlug' yuzingizga
Yoqildi shavq o'tinda-yu bu hasratdin gulob o'ldi.

Qatra qonlarkim tomar ko'ksimga urgon toshdin
Zahmdindir demakim qon yig'lar ahvolimga toshi.



*Misol keltirsh.
Birinchi misradagi
fikrga ikkinchi
misrada hayotiy
misol keltirish.*


Tamsilga misollar

Ey ko'ngul jonni hayoli oldida qil peshkash,
Har nima bo'lsa aziz eltur kishi mehmon sori.

Ko'ngulni qon yosh-u gohi yuzum birla ovuturmen
Sorig'-qizil birla andoqki xalq tiflin ovutmish.



ISTIORA



Istiora qarz olish. Istiora qisqa o`xshatish bo`lgani uchun unda to`liq o`xshatishga oid to`rt element mavjud bo`lmaydi. Chunonchi, ochiq istiorada o`xshagan narsa ornida o`xshatilgan narsa aytiladi.

ISTIORAGA MISOLLAR

Andin so'ng alif toza niholingga fido,

Nuni dag'i anbari hilolingga fido.

Jamoling ko'rgali, ey dastai gul,

Bo'lubmen turfa shaydo bil kelib ket.



*She'rda yaqin so'zlarning
ketma-ket keltirish,
uyushiq bo'laklardan
foydalanish.*

TA'DIDGA MISOLLAR



Ó'qi bu Lutfiy niyoznomasini,
Savob-u olqish-u yuz ming duo kerak bo'lsa.

Ta'lim gulchehra nargiz ko'zlilar bor,
Shakar dudog'li shirin so'zlilar bor.



Mukarrar

*Qayta-qayta, takror-
takror. Takror
soʻzlardan foydalanish*

Mukarrarga misollar

Tola-tola nay o'qung ko'ksunda go'yo sindikim,


Tevraluptur notavon ko'nglumda bir-bir tolalar.

Bodadin gul-gul ko'rib ul yuzni, oning hajridin

Chok-chok o'lg'an ko'nguldek tah-batah bo'ldi gul.



Takrîr



*Takrorlash. Bîr
soʻzni baytning turli
oʻrinlarida qoʻllash.*

Takrirda misollar

Dema, ishqim nayladikim ro'zgoringdur qaro,

O'rtadi, ey qotili nomehrubonim, *o'rtadi*.

Tomin olur, ey pari, holimga boq,

Ishtiyoq-u ishtiyoq-u ishtiyoq.

*Teskari qilib takrorlash. Birinchi
misrada keltirilgan ikki soʻzlar
yoki soʻzlar birikmasi oʻrnida
ikkinchi misrada oʻrnini
almashtirib keltirish.*

Tardi aks

Tardi aksga misollar

Habib bo'lsa edi yo raqib o'lsa edi,

Raqib o'lsa edi yo habib bo'lsa edi.

Necha jonimg'a mundog' kecha o'lg'ay,

Kecha jonimg'a mundog' necha o'lg'ay.



*Baytda lirik qanramon
olamdagi shaxsga, har qanday
narsa-hodisalarga, tabiatdagi
istalgan narsaga, o'zining
qalbiga, suhbatdoshiga
murojaat etishi.*

Nidoga misollar

Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg'a ayt,


Yig'larimning shiddatin gulbargi xandonimg'a ayt.

Rahm qilg'il bandag'a, *ey shoh*, ul Tengri uchun

Kim etar bizni gado ul sizni sulton aylagan.



Tasdir




Baytni boshlagan
soʻz uni oxirida
ham takrorlanadi.

Tasdirga misollar

*Men bu yuz mushtoqidurmen, bog'u bo'stonkim bo'lar,
Bo'lmasin nasrin-u lola, arg'uvon sizsiz menga.*

*Gul chog'i yori safar aylab Navoiy jonig'a
Har biri bir toza qonlig' dog'i hijron bo'ldi gul.*



Tasbe

*Birinchi misrani
tugatgan soʻz
ikkinchi
misraning
boshida kelishi.*

Tasbega misollar

Kuchum yetgancha ko'p qildim vavolar,
Vafoli qulni asrar podsholar.

Atoyini agar olamda sotsang,
Sot, ey zohidki, ul xo'blar qulidur.

Bir narsani
ikkinchi bir
narsa orasiga
qo'yimoq)da
san'atkor
yaratilayotgan
asariga boshqa
biror shoirning
kuchli ta'sir
qilgan misra
yoki misralarini
o'zgartirishsiz
kiritadi



TAZMINGA MISOL

Zulfiya "O'rik gullaganda" she'rida

„Derazamning oldida bir tup,

O'rik oppoq bo'lib gulladi...”

Gulni ko'rib ishqparast qalbim,

Ming aytilgan darddan kuyladi,

deb yozar ekan, sevimli yori Hamid Olimjonning shu nomdagi she'rining birinchi, ikki misrasini aynankeltiradi.



Qofiya



*Misralarda
takorlanib keluvchi
shakli va ma'nosi
har xil, lekin
ohangdosh so'zlar
qofiya deyiladi*

*Qofiyani
shakllantiruvchi,
soʻzning asos qismida
joylashgan, unli yoki
undosh tovushdan
tashkil topgan tirqak
tovush raviiy deyiladi*

Raviiy

*Raviiyning oʻrniga koʻra
qofiya ikki turga boʻlinadi:
1. Qofiyadosh soʻzlar raviiy
bilan tugasa Muqayyad
qofiya deyiladi.
2. Raviiydan keyin
qoʻshimcha kelsa Mutlaq
qofiya deyiladi.*

QOFIYAGA MISOLLAR

*Har kishikim birouga qazigay **choh**,*

*Tushgay ul choh ara o'zi **nogoh**.*

(muqayyad qofiya)

*Sensiz u jahon ayski **alamdur** manga, ey da'st,*

*Shodlig'i ham mehnat-u **g'amdur** manga, ey da'st.*

(mutlaq qofiya)

RADIF

*Radif – misralarda
qofiyadan keyin
takrorlanib keladigan
bir xildagi soʻz, yoki
soʻzlar birikmasi*

Radif bir
soʻzdan
iborat boʻlsa
yigʻiq

Radif birdan
ortiq soʻzdan
iborat boʻlsa
yoyiq

RADIFGA MISOLLAR

Soʻz gulshanining bulbuli goʻyosi Navoiy,
Maʼni sadafining duri yaktosi Navoiy.



Jondin seni koʻp sevarmen, ey umri aziz,
Sondin seni koʻp sevarmen, ey umri aziz.

